



UDK: 80/81.811.111

Sabrina ABDUSALOMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
Zebiniso ALLAYAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: zeboallayarova51@gmail.com

O'zMU professori, filologiya fanlari doktori (DSc) N.Sadullayeva taqrizi asosida

XORIJIIY TIL (INGLIZ TILI)NI O'QITISHDA SO'Z BOYILIGINI OSHIRISH KO'NIKALARINI RIVOJLANTISH VA BU JARAYONDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI TADBIQ ETISH (FILM VA SERIALLAR MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada film va seriallardan foydalanishning lingvistik, psixolingvistik va didaktik asoslari ixcham ilmiy tahlil qilinadi. Audiovizual materiallarning tabiiy nutq muhiti yaratishi, eshitib tushunish, talaffuz hamda leksik-grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishi, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashi asoslab beriladi. Film va seriallar orqali pragmatik, nutqiy va lingvokulturologik unsurlarni o'zlashtirish o'quvchi til kompetensiyasini chuqurlashtiruvchi omil sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, bunday vositalarning motivatsiyani oshirish, multimodal idrokni faollashtirish va ijodkorlikni rag'batlantirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari film va seriallarning zamonaviy til ta'limi samaradorligini oshiruvchi kuchli pedagogik resurs ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, film, serial, audiovizual vosita, autentik nutq, kommunikativ kompetensiya, multimodal idrok, pragmatika, lingvokulturologiya, eshitib tushunish, talaffuz, motivatsiya, metodika, subtitir, real kontekst.

“DEVELOPING VOCABULARY-BUILDING SKILLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE (ENGLISH) AND APPLYING MODERN APPROACHES IN THIS PROCESS (BASED ON FILMS AND TV SERIES).”

Annotation

This article presents a concise scientific overview of the linguistic, psycholinguistic, and didactic principles of integrating films and TV series into English language teaching. It argues that audiovisual materials provide a natural speech environment, strengthen listening, pronunciation, and lexical-grammatical skills, and significantly support communicative competence. The study highlights how pragmatic features, speech situations, and cultural elements acquired through audiovisual input deepen learners' linguistic proficiency. It also outlines the motivational, multimodal, and creative benefits of such resources, as well as key criteria for film selection and methodological application. Findings confirm that films and TV series are an effective pedagogical tool that enhances the quality of foreign-language interactions.

Keywords: English, film, series, audiovisual material, authentic speech, communicative competence, multimodal perception, pragmatics, linguoculture, listening, pronunciation, motivation, methodology, subtitles, real context.

РОЛЬ «РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ УВЕЛИЧЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ (АНГЛИЙСКОМУ) И ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ В ЭТОМ ПРОЦЕССЕ (НА ПРИМЕРЕ ФИЛЬМОВ И СЕРИАЛОВ)»

Аннотация

В статье кратко рассматриваются лингвистические, психолингвистические и дидактические основы использования фильмов и сериалов в обучении английскому языку. Показано, что аудиовизуальные материалы формируют естественную речевую среду, развивают навыки аудирования, произношения и лексико-грамматические умения, а также усиливают коммуникативную компетенцию. Подчеркивается значение усвоения прагматических и лингвокультурных элементов, роста мотивации и активации мультимодального восприятия. Описываются критерии отбора фильмов и методические подходы. Результаты подтверждают высокую педагогическую эффективность аудиовизуальных средств в современном языковом образовании.

Ключевые слова: английский язык, фильм, сериал, аудиовизуальные средства, аутентичная речь, коммуникативная компетенция, мультимодальное восприятие, прагматика, лингвокультурология, аудирование, произношение, мотивация, методика, субтитры, реальный контекст.

Kirish. Film va seriallar o'quvchiga nafaqat so'z boyligini kengaytirish, balki nutqning ohangi, talaffuzi, tezligi va madaniy xususiyatlarini tabiiy tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi "The King's Speech" filmi fonetik mashg'ulotlar uchun, "Friends" seriali esa kundalik muloqot madaniyatini o'rgatish uchun juda foydalidir. Rus filmlaridan "Москва слезам не верит" yoki "Ирония судьбы" o'quvchilarga emotsional va madaniy kontekstda nutqni tahlil qilish ko'nikmasini beradi. Shu bilan birga, o'zbek kinosidagi "Abdullajon" yoki "Erkak" kabi filmlar milliy mentalitet, ijtimoiy muloqot va til madaniyatining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish imkonini

beradi. Film asosidagi darslar o'quvchini tilni nafaqat grammatika yoki lug'at doirasida, balki kontekst, emotsiya va ijtimoiy muhit bilan uyg'un holda o'rganishga undaydi. Bunda o'quvchi nutqni eshitadi, ko'radi, his qiladi va shu orqali kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. O'qituvchi esa bu jarayonda ma'lumot beruvchi emas, balki til tajribasini boshqaruvchi fasilitator rolini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili: Xorijiy til sifatida ingliz tilini o'qitishda audiovizual materiallardan foydalanishga oid tadqiqotlar til ta'limi metodikasi, psixolingvistika va lingvokulturologiya yo'nalishlarida keng o'rin egallagan. Dastlabki ilmiy yondashuvlar film va videomateriallarni dars

jarayoniga kiritish o'quvchilarni real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirishi va autentik nutqni idrok etishga tayyorlashi mumkinligini ta'kidlaydi. Krashen (Input Hypothesis) tomonidan ilgari surilgan "tushunarli kirish" nazariyasi audiovizual materiallarning samaradorligini asoslab, film va seriallar tilni tabiiy kontekstda qabul qilish imkonini berishi orqali til kompetensiyasini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Keyingi tadqiqotlarda (Stempleski, 2000; Sherman, 2003) videomateriallar multimodal idroknii faollashtirishi, ya'ni tasvir, tovush, kontekst va emotsional ifodaning birlashuvi orqali o'quvchilarning tilni qabul qilish darajasini sezilarli yaxshilashi isbotlangan. Chunonchi, film asosidagi o'qitish modellarida o'quvchilar nutq tempri, urg'u, intonatsiya, tahrirlangan va tahrirlanmagan dialoglar kabi real nutq xususiyatlarini kuzatishi, bu esa ularning fonetik va pragmatik kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

Shuningdek, didaktik tadqiqotlar audiovizual vositalarni qo'llashda metodik yondashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Harmer (2007) va Willis (Task-Based Learning) tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarda film va seriallar faqat ko'rgazmali vosita sifatida emas, balki til faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi kompleks o'quv materiali sifatida qo'llanishi lozimligi ta'kidlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tanlangan film janri, uzunligi, nutq murakkabligi hamda subtitrlar bilan ishlash texnikasi o'quvchilar til o'zlashtirish dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda film va seriallardan foydalanish metodikasi zamonaviy ta'lim tizimida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarni sun'iy darslik nutqidan haqiqiy, tirik til muhitiga olib kiradi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda til kompetensiyasini shakllantirish, motivatsiyani oshirish va kommunikativ malakalarni rivojlantirishda film va seriallarning samaradorligini aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun kuzatuv, tajriba va so'rov metodlaridan foydalanilgan. Tajribada ishtirok etgan 60 nafar talabadan iborat ikki guruhdan biri film asosida o'qitilgan bo'lsa, ikkinchisi an'anaviy metod asosida o'qigan. Film asosidagi o'qitish jarayoni uch bosqichda tashkil etildi: tayyorgarlik, tomosha va tahlil bosqichlari. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga film mazmuni, leksik birliklar va asosiy kontekstni tushuntirib, filmni tomosha qilish chog'ida nutqni eshitish, talaffuzni farqlash, iboralarni kontekstda aniqlash kabi mashqlarni bajarishga yo'naltirgan. Tomosha jarayonidan so'ng suhbat, rolli o'yin, film ssenariysini davom ettirish, personaj nutqini tahlil qilish kabi topshiriqlar orqali o'rganilgan material mustahkamlangan.

Tadqiqotda film va seriallar tanlash mezonlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ingliz tilidagi "Friends", "The Crown", "Harry Potter", "Sherlock" kabi mashhur asarlar tanlandi. "Friends" seriali kundalik muloqot, hazil va ijtimoiy nutqni o'rgatish uchun qulay bo'lsa, "Sherlock" analitik fikrlash, tez nutqni idrok etish, grammatik konstruksiyalarni aniqlash uchun samarali vosita sifatida tanlandi. "The Crown" esa rasmiy nutq, ijtimoiy mavqe va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi o'quv materiali sifatida qo'llanildi. Bunda talabalar "Duty first, self second" kabi qisqa, lekin semantik jihatdan kuchli iboralar orqali nutqning rasmiy uslubini anglash imkoniga ega bo'ldilar. Shuningdek, "Harry Potter" filmidagi "You're a wizard, Harry!" iborasi orqali o'quvchilar fonetik ohang, emotsional urg'u va talaffuzning psixologik ta'sirini o'rgandilar. Bu misollar fonetik, leksik va pragmatik kompetensiyani birlashtiruvchi o'quv jarayonini shakllantirdi.

Tajriba davomida rus tilidagi "Москва слезам не верит", "Ирония судьбы, или С лёгким паром!" kabi filmlar ham solishtirma tahlil uchun tanlandi. Ularning ijtimoiy

nutqdagi emotsional ohangi, monologik tuzilishi ingliz seriallaridagi qisqa, tezkor dialoglar bilan taqqoslandi. Talabalar rus filmlaridagi hissiy intonatsiya va uzun replika kuzatib ingliz tili pragmatik strukturalaridan farqini nutqdilar. Bu tahlillar orqali til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash imkoniyati yaratildi. O'zbek filmlaridan "Baron", "Yondiradi, kuydiradi", "Ota" kabi asarlar milliy talaffuz madaniyati, iboraviy boylik va dramatik nutq tahlilida qo'llanildi. Talabalar o'z ona tili va ingliz tili o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash orqali lingvokulturologik tafakkurni rivojlantirdilar.

O'qitishda "pause and discuss" yondashuvi keng qo'llanildi. Bu usul filmni muhim nuqtada to'xtatib, o'quvchilarning fikr bildirish, taxmin qilish, voqeani davom ettirish yoki shaxsiy munosabatini ifodalash imkonini beradi. Masalan, "Friends" serialidagi hazilomuz sahna to'xtatilib, personajning maqsadi va intonatsiyasi haqida savollar berildi. "The King's Speech" filmida esa qahramon nutqidagi psixologik to'siq muhokama qilinib, o'quvchilar o'z hayotidagi til o'rganishdagi qiyinchiliklar bilan solishtirdilar. Bu jarayon o'quvchining o'zini tahlil qilish, empatiya qilish va refleksiv fikrlash qobiliyatini kuchaytirdi. Film asosidagi mashg'ulotlarda ijodiy topshiriqlar ham muhim o'rin tutdi. O'quvchilar film yakuniga muqobil ssenariy yozdilar, dialoglarni qayta ifodaladilar, film asosida rolli o'yinlar tashkil etdilar. "Sherlock" serialidagi tergov sahnasini qayta sahnalashtirish mashqi nutqdagi tahliliy ifodani, "Harry Potter" sahnasini qayta o'ynash esa emotsional ifodaning tabiiyligini rivojlantirdi. O'qituvchi filmni faqat ko'rgazmali vosita sifatida emas, balki tilni real muloqot orqali o'rgatuvchi interaktiv resurs sifatida qo'lladi.

Film va seriallar o'quvchilarda tabiiy nutq muhitini his qilish va real hayotiy vaziyatni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirdi. Masalan, ingliz tilidagi "Friends" sitcomidagi "How you doin'?" yoki "I'll be there for you" kabi iboralar o'quvchilarga nutq ohangi, ijtimoiy masofa va hazil orqali fikrni ifodalash usullarini o'rgatdi. "The Crown" serialidagi "Duty first, self second" iborasi esa talabalarni rasmiy nutq va madaniy qadriyatlar uyg'unligini tushunishga olib keldi. Shu tarzda o'quvchilar grammatikani emas, balki pragmatika — ya'ni tilning ijtimoiy va emotsional kontekstda qo'llanishini o'zlashtirdilar. Film asosidagi mashg'ulotlarda o'quvchilarning fonetik ko'nikmalari ham ancha yaxshilandi. "The King's Speech" filmidan olingan talaffuz mashqlari orqali ular "th", "r" va "w" tovushlarini to'g'ri aytish, intonatsiyani tabiiy ishlatish malakasini shakllantirdilar. Subtitrlardan foydalangan talabalar esa so'zning yozilishi, talaffuzi va ma'nosini bir vaqtda idrok etish orqali o'rganish jarayonini tezlashtirdilar. Statistik kuzatuvlar subtitrlil filmlar lug'at boyligini 30–35% tez oshirishga yordam berganini ko'rsatdi.

Film asosida dars o'tilgan guruhda talabalar passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylandilar. "Harry Potter" filmidagi "You're a wizard, Harry!" sahnasidan so'ng talabalar o'z orzulari va qobiliyatlari haqida ingliz tilida erkin so'zlay boshladilar. "Sherlock" serialidagi tez, mantiqiy nutq esa analitik fikrlashni faollashtirdi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarni reproduktiv emas, balki produktiv nutq faoliyatiga yo'naltirdi. Rus kinematografiyasidan "Москва слезам не верит" filmi o'quvchilarga emotsional nutqni tahlil qilish, so'z ohangi va intonatsiya orqali ma'no o'zgarishini his etish imkonini berdi. Filmida ishlatilgan "Жизнь — не сказка, а борьба" iborasi talabalarni hayotiy mazmunni tahlil qilishga undadi va nutqdagi psixologik omillarni anglashga yordam berdi. Bu tajriba shuni ko'rsatdiki, rus filmlarini tahlil qilish ham ingliz tili darslarida qiyosiy pragmatika va madaniy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbek filmlaridan "Osmondagi bolalar" yoki "Yondiradi yuraklar" asarlarida ishlatilgan samimiy dialoglar o'quvchilarga milliy hissiyot va

madaniy ifodalarni inglizcha ekvivalentlar bilan taqqoslash imkonini berdi. Masalan, o'zbekcha "Ishonchni yo'qotma!" iborasining ingliz tilidagi "Keep the faith!" ifodasi bilan semantik yaqinligi o'quvchilarni tarjimaviy emas, ma'no asosidagi fikrlashga o'rgatadi. Bu jarayon til o'rganishda madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirishga olib keldi.

O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari film asosida o'qitish darslarining o'zlashtirishga ijobiy ta'sirini tasdiqladi. 87% talaba film orqali o'rganish darslikka nisbatan qiziqarliroq, 9% "o'rta darajada", 4% esa "murakkab, ammo foydali" deb baholadi. Talabalar o'rganilgan iboralarni mustaqil muloqotda ishlatishni boshlagan, bu esa o'zlashtirish samaradorligining yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Muallif sifatida kuzatuvim shuni ko'rsatdiki, film orqali o'rganilgan so'z yoki ibora oddiy yodlashdan farqli ravishda xotirada uzoq muddat saqlanadi. Chunki o'quvchi uni emotsional tajriba bilan bog'laydi. Masalan, "Titanic" filmidagi "You jump, I jump!" iborasi o'quvchilarda fidoyilik va do'stlik hislarini uyg'otadi. Rus filmidagi "Брат" asarida aytilgan "Сила - в правде" iborasi esa ingliz tilidagi "Truth is power" bilan semantik jihatdan yaqin bo'lib, o'quvchilarni turli madaniy kontekstlarni solishtirishga o'rgatadi.

Film asosida o'qitishning muhim jihatlaridan biri - multimodal idrokning faollashishidir. O'quvchi bir vaqtning o'zida eshitadi, ko'radi va his qiladi, bu esa xotira jarayonlarini kuchaytiradi. "Forrest Gump" filmidagi "Life is like a box of chocolates" iborasi o'quvchilarda metaforik tafakkurni shakllantirib, o'zbek tilidagi "Hayot sinovlardan iborat" ifodasi bilan semantik aloqani anglash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Film va seriallar xorijiy til sifatida ingliz tilini o'qitishda lingvistik, psixolingvistik va madaniy integratsiyani ta'minlovchi eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular o'quvchini darslikdagi sun'iy, me'yoriy nutqdan chiqarib, tirik til muhiti bilan tanishtiradi. Audiovizual materiallar orqali o'quvchi tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki madaniy muloqot vositasi sifatida idrok etadi. Ingliz, rus va o'zbek kinematografiyasi misolida bu jarayonning turli madaniy va kommunikativ jihatlarini kuzatish mumkin. Masalan, ingliz seriallarida tilning aniqligi, rasmiy uslubi va pragmatik boyligi seziladi. "The Crown" serialidagi "Duty first, self second" iborasi grammatik jihatdan soddaga, lekin mazmunan ingliz xalqining burch va mas'uliyatga asoslangan tafakkurini ifodalaydi. Bu orqali o'quvchi tilning semantik qatlamidan tashqari, xalq mentalitetini ham his qiladi. Shuningdek, "Sherlock" serialida tezkor tahliliy nutq, intonatsiya va so'z tanlashdagi mantiqiy urg'ular o'quvchilarga analitik fikrlash va mantiqiy izchillikni o'rgatadi. Rus filmlari esa tilning hissiy, ifodali va soddalik bilan uyg'unlashgan shaklini namoyon etadi. Masalan,

"Москва слезам не верит" filmidagi dialoglarda hayotiy muloqot, ohang, tana tili, kinoya va so'z o'yinlari orqali nutq madaniyati yoritiladi. Bunday sahnalar o'quvchiga so'zning shunchaki grammatik birlik emas, balki ma'naviy va ijtimoiy mazmun tashuvchi vosita ekanini tushunishga yordam beradi.

O'zbek filmlaridan "Abdullajon" yoki "Osmondagi bolalar" kabi asarlar esa milliy madaniyat, xalqona iboralar, samimiy ohang va ijtimoiy muhitni ifoda etadi. Ularning tahlili orqali o'quvchi nafaqat ingliz tilini, balki o'z milliy madaniyatini ham qiyosiy tahlil orqali chuqurroq anglaydi. Ingliz tili darslarida film va seriallar tilning pragmatik, emotsional va kommunikativ jihatlarini o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Friends" sitcomidagi "How you doin'?" iborasi oddiy savol shaklida ko'rinsa-da, pragmatik jihatdan do'stona hazil, ijtimoiy yaqinlikni bildiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bunday misollar til o'quvchisini real nutqiy holatlarga tayyorlaydi, muloqotda ohang, tana tili va intonatsiyaning ahamiyatini anglashga o'rgatadi.

Muallif sifatida men ta'kidlamoqchiman, film va seriallardan foydalanish o'quvchini passiv tinglovchidan faol muloqotchi, ya'ni taqlidchi emas, balki mazmun yaratuvchi shaxsga aylantiradi. O'quvchi sahnalarni tahlil qilib, qahramonlar xatti-harakatiga baho beradi, muqobil yakun yaratadi va o'z fikrini erkin ifoda etadi. Bu esa produktiv nutqni, mustaqil fikrlashni va til orqali madaniyatni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Film asosida o'qitish o'quvchining miyasida til, madaniyat va emotsiyani bir butun tizim sifatida bog'laydi. Ingliz, rus va o'zbek filmlarining uyg'un qo'llanilishi o'quvchida madaniyatlararo tafakkur, tolerantlik va global muloqot kompetensiyasini shakllantiradi. Shu bois, film va seriallardan foydalanish xorijiy tilni o'rganishda nafaqat eshitish va ko'rish idrokini faollashtiruvchi vosita, balki tilni his qilish va uni hayotiy kontekstda qo'llashga o'rgatuvchi kuchli pedagogik resurs sifatida baholanishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, film va seriallar xorijiy til sifatida ingliz tilini o'qitishda yuqori didaktik potensialga ega bo'lgan audiovizual resurslar hisoblanadi. Ular o'quvchilarga tabiiy nutq muhitini taqdim etib, autentik lingvistik birliklarni real kommunikativ vaziyatlar bilan uyg'un holda qabul qilish imkonini beradi. Audiovizual materiallardan foydalanish tinglab tushunish, talaffuz, leksik-grammatik bilimlar va pragmatik kompetensiyaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Shuningdek, multimodal idrokning faollashuvi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi hamda mustaqil nutqiy faoliyatni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Godwin-Jones, R. (2018). Using mobile devices in language learning and teaching: Emerging technologies. *Language Learning & Technology*, 22(3), 2–11.
2. Wang, Y., & Vasquez, C. (2012). Web 2.0 and second language learning: Research insights and implications. *CALICO Journal*, 29(3), 412–430.
3. Chapelle, C. A., & Sauro, S. (2020). Expanding second language acquisition research through technological innovation. *Language Teaching*, 53(1), 1–13.
4. Dooly, M., & O'Dowd, R. (2018). Online foreign language interaction and exchange: A state-of-the-art review. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1–14.
5. Lai, C., & Li, Z. (2017). Technology-enhanced task-based language teaching: A systematic review. *Computer Assisted Language Learning*, 30(8), 833–860.
6. Sun, Y. C., & Yang, F. Y. (2015). Service learning via Web 2.0 in EFL speaking classes: I help, therefore I learn. *Computer Assisted Language Learning*, 28(3), 202–219.
7. Reinders, H., & White, C. (2016). Autonomy and technology in language learning: A 20-year review. *Language Learning & Technology*, 20(2), 143–154.
8. Lin, T. J., & Lan, Y. J. (2019). Language learning in virtual reality environments: A critical review. *Educational Technology & Society*, 22(4), 28–38.